



“ABDULLA QAHHORNING “DAHSHAT” HIKOYASIDA

REALIZM JANRINING BADIY IFODASI”

**«ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ЖАНРА РЕАЛИЗМА В
РАССКАЗЕ АБДУЛЛЫ КАХХАРА “DAHSHAT” (УЖАС)»**

**“THE ARTISTIC EXPRESSION OF THE REALISM GENRE IN
ABDULLA QAHHOR'S SHORT STORY “DAHSHAT” (HORROR)”**

Andijon davlat chet tillari instituti

DSc filologiya fanlari doktori, professor v.b.

Gavxaroy Isroiljon Qizi

gavharoy7575@mail.ru

ORCID ID 0009-0007-9600-6747

+998 93-783-85-71

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

Muhammadova Muslima Dilshodbek qizi

mmuhammadova899@gmail.com

ORCID ID 0009-0007-4512-6757

+998 99-047-22-25

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasida realizm janrining badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Asarda oddiy insonlarning ruhiy kechinmalari, kundalik hayotdagi real voqealar va ijtimoiy muhitning ta’siri yorqin tasvirlangan. Muallif o‘ziga xos badiiy vositalar, hayotiy dialoglar va aniq detallar orqali o‘quvchini voqealar markaziga olib kiradi. Tadqiqot jarayonida hikoyadagi realizm unsurlari, obrazlarning tabiiyligi hamda muallifning hayotiy haqiqatni aks ettirish mahorati misollar yordamida yoritilgan. Natijada, “Dahshat” hikoyasi o‘zbek adabiyotida realizm janrining yorqin namunalaridan biri sifatida baholangan.



Kalit soʻzlar: ruhiy kechinmalar, kundalik hayot, real voqealar, ijtimoiy muhit, hayotiy dialoglar, badiiy vosita, aniq detallar, obrazlarning tabiiyligi, sabr-toqat, jamiyatdagi ziddiyatlar.

Аннотация. В данной статье анализируется художественное воплощение жанра реализма в рассказе Абдуллы Каххара «Дахшат» («Ужас»). В произведении ярко изображены душевные переживания простых людей, реальные события повседневной жизни и влияние социальной среды. Автор с помощью своеобразных художественных средств, жизненных диалогов и точных деталей погружает читателя в центр событий. В ходе исследования раскрываются элементы реализма, естественность образов и мастерство автора в отражении жизненной правды. В результате рассказ «Дахшат» оценивается как один из ярких образцов жанра реализма в узбекской литературе.

Ключевые слова: душевные переживания, повседневная жизнь, реальные события, социальная среда, жизненные диалоги, художественные средства, точные детали, естественность образов, терпение, противоречия в обществе.

Abstract. This article analyzes the artistic embodiment of the realism genre in Abdulla Qahhor's short story "Dahshat" ("Horror"). The work vividly depicts the emotional experiences of ordinary people, real-life events, and the influence of the social environment. Through distinctive artistic techniques, lifelike dialogues, and precise details, the author immerses the reader into the center of events. The study highlights the elements of realism, the naturalness of characters, and the author's mastery in reflecting life's truth. As a result, "Dahshat" is evaluated as one of the bright examples of the realism genre in Uzbek literature.

Key words: emotional experiences, everyday life, real events, social environment, lifelike dialogues, artistic devices, precise details, naturalness of characters, patience, social contradictions.



KIRISH

Adabiyot tarixida realizm janri o'zining hayotiy voqealarni haqqoniy tasvirlashi bilan ajralib turadi. **Realizm** (lot. *realis* – mavjud, haqiqiy) – adabiyotshunoslikda realizm termini tor va keng ma'nolarda qo'llanadi. Keng ma'noda realizm terminining ma'nosi badiiy asar (unda tasvirlangan badiiy voqelik) bilan real voqelik munosabatidan kelib chiqadi. Ya'ni bu holda realizm umumestetik tushuncha bo'lib, hayotni haqiqatga (reallikka) muvofiq tasvirlashni, hayot haqiqatini bildiradi. Har qanday badiiy asarda voqelik u yoki bu tarzda aks etishi, voqelikni hayotga monand tarzda aks ettirish esa qadimdan mavjudligi e'tiborga olinsa, bu ma'nodagi realizmning ildizlari juda qadim zamonlarga taqalishi tabiiydir. Shu bois ham adabiyotshunoslikda antik realizm (yoki mifologik realizm.), Uyg'onish davri realizmi, ma'rifatchilik realizmi kabi atamalar ishlatiladi, tabiiyki, bu ma'nodagi realizm, klassitsizm, sentimentalizm kabi yo'nalishlarga ham xosdir. Demak, bu ma'noda realizm termini hayotni badiiy aks ettirish prinsiplari, badiiy tafakkur tipini anglatadi. Tor ma'noda realizm– hayotni haqiqatda mavjud narsa-hodisalar mohiyatiga muvofiq tarzda, voqelikda mavjud faktlarni tipiklashtirish asosida yaratilgan badiiy obrazlar orqali aks ettirishga asoslanadigan ijodiy metod va ongli ravishda shu metodga tayangan adabiy yo'nalishni bildiradi. Realizm adabiy oqim sifatida XIX asrda keng rivoj topgan bo'lsa-da, uning ildizlari qadimgi adabiy an'analarga borib taqaladi. Bu janrning asosiy mohiyati hayot voqealarini bezaksiz, o'zgartirishsiz, bor holicha yoritishdan iboratdir. Realizm yozuvchidan voqelikni chuqur anglash, ijtimoiy muhit va inson ruhiyatini tahlil qilish hamda badiiy obrazlar orqali hayot haqiqatini aks ettirishni talab qiladi. Shu bois realizm asarlarida tipik xarakterlar va tipik vaziyatlar bir butunlikda namoyon bo'ladi. O'zbek adabiyotida realizm an'analari XX asrning 30–50-yillarida yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davr adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Abdulla Qahhor bo'lib, u o'z asarlarida inson xarakteri, ijtimoiy muhit va zamonasining murakkab hayotini realistik ruhda tasvirlaydi. Qahhor ijodida real hayot manzaralarini tasvirlash, voqealarni sodda, ammo chuqur mazmunli ifodalash, jamiyatdagi ziddiyatlarni ochib berish ustuvor



o‘rin tutadi. Uning asarlarida insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va jamiyat bilan munosabatlari nihoyatda tabiiy tarzda aks etadi. Adibning “Dahshat” hikoyasi ham realizm janrining yorqin namunalaridan biridir. Asarda urush davrining og‘ir sharoitlari, odamlarning ruhiy iztiroblari va kundalik hayotdagi qiyinchiliklari badiiy, ammo hayotga juda yaqin tasvirlangan. Muallif real hayotiy detallar, jonli muloqotlar va tabiiy xarakter yaratish orqali voqealarga ishonarlilik bag‘ishlaydi. Hikoya voqealari nafaqat urush davridagi voqelikni aks ettiradi, balki inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini ochib beradi. Abdulla Qahhor o‘zining “Dahshat” hikoyasida ana shu davr ayollari hayotining o‘ziga xos qirralarini hayotga juda yaqin, realistik uslubda tasvirlaydi. Hikoyaning boshida berilgan murojaat — “Xotin-qizlarning burun zamonda ko‘rgan kunini bilmaysizlar, qizlarim, aytgan bilan ishonmaysizlar!” — asar mazmuniga kirish eshigi bo‘lib, o‘quvchini o‘tmishdagi mashaqqatli hayot sahnalariga olib kiradi. Muallif ana shu tasvirlar orqali nafaqat o‘tmishni yodga oladi, balki ayollarning sabr-toqati, chidamliligi va hayotiy kurashini ham ko‘rsatadi. Mazkur maqolada Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi misolida realizm janrining badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Asardagi ijtimoiy muhit tasviri, qahramonlarning hayotiy xarakteri, voqealar rivoji va realistik tafsilotlar o‘rganilib, yozuvchining realizmga xos uslubiy yondashuvi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida adib ijodida realizmning o‘ziga xos xususiyatlari ochib beriladi va uning o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni yoritiladi.

ADABIYOT TAHLILI VA METOD

(Dahshat hikoyasi)

Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotining eng yirik vakillaridan biri bo‘lib, realizm janrini yuksak darajada namoyon etgan ijodkor hisoblanadi. Uning “Dahshat” hikoyasi o‘z davrining ijtimoiy hayotini, urush yillaridagi odamlarning og‘ir sharoitini va xotin-qizlarning boshidan kechirgan mashaqqatlarini haqqoniy tasvirlashi bilan ajralib turadi. Hikoyaning boshida keltirilgan **“Xotin-qizlarning burun zamonda ko‘rgan kunini bilmaysizlar, qizlarim, aytgan bilan**



ishonmaysizlar!” jumlası asarning asosiy mazmuniga kirish eshigi bo‘lib, o‘quvchini o‘sha davr muhitiga olib kiradi. Muallif o‘z asarida ayollarning sabr-toqati, chidamliligi, oilaviy va ijtimoiy bosim ostida yashashga majbur bo‘lgan hayotini sodda, ammo juda ta’sirli tasvirlaydi. Hikoyadagi realizm belgilaridan biri — voqealarning hayotga juda yaqinligi va ularning oddiy odamlar hayotidan olingan bo‘lishidir. A.Qahhor obrazlarni tipik xarakter sifatida yaratadi: og‘ir mehnatga chidagan, sharoitdan nolimagan ayollar, urf-odatlar ichida ulg‘aygan qizlar, urush paytida ikki-uch baravar yuk ko‘targan onalar obrazi hayotiy detallar bilan boyitilgan. Dialoglar tabiiy, tasvirlar sodda, ammo mazmunli. Bu jihatlar realizmning asosiy tamoyillari – hayot haqiqatini bezaksiz aks ettirish va ijtimoiy muhitni haqqoniy tasvirlash – bilan uyg‘unlashadi. Mazkur maqola tayyorlashda **adabiy-tahliliy, tarixiy-kontekstual** va **qiyosiy** metodlardan foydalanildi. Avvalo, realizm janrining nazariy talqinlari ilmiy adabiyotlar asosida o‘rganildi. So‘ngra “Dahshat” hikoyasi matni bevosita tahlil qilinib, undagi voqealar, obrazlar, badiiy vositalar va ularning realizmga xos jihatlari aniqlab chiqildi. Hikoyadagi ijtimoiy muhit tasviri Sovet davrining tarixiy va siyosiy sharoiti bilan bog‘liq holda izohlandi. Qahhorning boshqa realistik asarlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, uning realizmga bo‘lgan yondashuvi kengroq ochib berildi. Natijada “Dahshat” hikoyasi nafaqat o‘z davrining hayotiy voqealarini ifodalovchi badiiy asar, balki o‘zbek realizm adabiyotida ayollar taqdiri masalasini yoritgan muhim manba sifatida baholanishi mumkinligi aniqlandi.

MUHOKAMA

“Dahshat” hikoyasi o‘zining boshidayoq o‘quvchini keskin va og‘ir kayfiyatga olib kiradi. Yozuvchi voqeani tasvirlashda nafaqat tashqi manzarani, balki ichki ruhiy holatni ham aniq ifodalaydi. Hikoya kirish qismidagi tasvirlar o‘quvchiga oldinda sodir bo‘ladigan voqealar haqida sezdirib, xavotir va hayajon uyg‘otadi. Bu yerda muallif realistik uslubdan foydalangan holda, oddiy odamlar hayotidagi keskin burilishlarni ko‘rsatishga intiladi. Hikoya boshidagi muhit tasviri



keyingi voqealar uchun fon yaratadi va asar nomidagi “dahshat” soʻzining maʼnosini asta-sekin his qilishga yordam beradi. ***“Xotin-qizlarning burun zamonda koʻrgan kunini bilmaysizlar, qizlarim, aytgan bilan ishonmaysizlar!”***[A.Qahhor, ***“Dahshat”***, 1907:1] jumlasini butun asarning ruhiy ohangini belgilab beradi. Bu soʻzlar orqali muallif oʻquvchini oʻsha davr ayollarining achchiq taqdiri haqida bayon qiladi. Bu jumlada oʻtmish ayollari hayotidagi iztirob va urf-odatlarining bosimi yaqqol seziladi. Bundan tashqari, ushbu jumlada muallifning tanqidiy ohangi ham bor — u oʻquvchiga “ishonmaysizlar” deb murojaat qiladi, yaʼni hozirgi yosh avlod oʻsha davr qiyinchiliklarini tasavvur ham qila olmasligini urgʻulaydi. Bu esa hikoyaning asosiy maqsadlaridan biri — oʻtmishni yodga olib, qadriyatlar va erkinlikning hozirgi qiymatini anglashga undashdir. Hikoya boshidagi ***“Olimbek dodxoning sakkiz xotini katta kundosh Nodirmohbegimning uyiga yigʻilib, sandal atrofida oʻtirishar edi”*** [A.Qahhor, ***“Dahshat”***, 1907:1] jumlasini oʻsha davr ijtimoiy hayotidagi koʻp xotinlilik hodisasini ochib beradi. Avvallari qishloqlarda boy va obroʻli kishilar bir nechta xotin olishni odatiy hol deb bilishib. Oʻsha davrlarda amaldor va taʼsirli kishilar oʻz manfaati yoʻlida turli usullarga qoʻl urar, ayrim oilalarga katta miqdorda qarz berib, soʻng qarzni kechish evaziga ularning qizlarini ayolini olishni talab qilishardi. Bu holat jamiyatda ochiqdan-ochiq gapirilmasa-da, koʻpchilikka maʼlum edi va koʻplab oilalar shunday yoʻl bilan oʻz farzandlaridan ayrilib qolishardi. ***“Tobut esa yana goʻristonni eslatdi, goʻriston haqida bolaligidan qulogʻida qolib kelgan vahimali gaplarni, hodisalarni jonlantirib yubordi. Dodxo bu xayollarni yengish uchun goʻriston vahimalaridan oʻzi soʻz ochdi va ikki ogʻiz gapining birida oʻzining dovyurakligini xotinlariga, ulardan ham koʻra oʻziga pisanda qila ketdi”*** [A.Qahhor, ***“Dahshat”***,1907:2] Ushbu epizod real voqelikka asoslangan boʻlib, Dodxoning xatti-harakati inson tabiatidagi kibr va oʻzini baland tutish holatini ochib beradi. U goʻriston haqidagi bolalikdan qolgan vahimali tasavvurlarini yengishga urinib, oʻzini dovyurak sifatida koʻrsatadi. Bu holat hayotda ham uchraydi — baʼzi odamlar ichki qoʻrquvlarini yashirish yoki oʻzini kuchliroq koʻrsatish maqsadida kibr bilan gapiradi. Shunday qilib, yozuvchi obraz orqali



jamiyatdagi insoniy zaiflik va manmanlikni realistik tarzda aks ettirgan. — *Tag'in nima qilasan Ganjiravonda, borib kelganingga ikki oy ham bo'lgani yo'q-ku!* [A.Qahhor, "*Dahshat*", 1907:2] Asardagi "ikki oy ham bo'lgani yo'q-ku" jumlasida o'sha davr ijtimoiy hayotidagi bir holatni aks ettiradi. Qizlarning ota uylariga tez-tez borishlariga ruxsat berilmagan, faqat muayyan sabablarga ko'ra va kam hollarda yo'l ochilgan. Bu esa asardagi realizm unsurlaridan biri bo'lib, o'quvchini o'sha davr an'analari va tartiblariga guvoh qiladi. "*choynak bilan qumg'onni oyog'i ostiga qo'ydi, paranji-chimmatni bir chekkaga tashladi*" [A.Qahhor, "*Dahshat*", 1907:3] Asarda keltirilgan "choynak bilan qumg'onni oyog'i ostiga qo'ydi, paranji-chimmatni bir chekkaga tashladi" jumlasida muallifning voqelikni aniq va davr ruhiga mos tasvirlaganidan dalolat beradi. Bu yerda "paranji-chimmat" ning tilga olinishi o'sha davrda ayollarning kiyim-kechak madaniyatini, an'anaviy liboslarni eslatadi. Paranjining tasvirlanishi nafaqat kiyimning o'zi, balki jamiyatdagi ayol o'rnini, urf-odat va an'analarning kuchini ko'rsatadi. Bu kabi detal asar voqealarining tarixiy kontekstini yanada boyitadi va o'quvchiga o'sha davr muhitini ko'z oldiga keltirishga yordam beradi.

NATIJALAR

Mazkur maqolada o'rganilgan adabiy asarlar tahlili shuni ko'rsatadiki, realizm janri o'z mohiyatiga ko'ra voqelikni hayotiy haqiqat asosida, badiiy vositalar yordamida ifodalash imkonini beruvchi eng samarali yo'nalishlardan biridir. Abdulla Qahhor ijodiy tajribasida kuzatilganidek, realizmda inson hayotidagi oddiy voqealar, kundalik muloqotlar, jamiyatdagi ijtimoiy va ma'naviy jarayonlar bevosita o'z aksini topadi. Ushbu jarayonda mualliflar turli badiiy tasvir vositalaridan — predmet tasviri, kiyim-kechak detallari, ijtimoiy manzara, shaxs xarakterini ochuvchi kichik, ammo mazmunli tafsilotlardan — samarali foydalangan. Tahlil davomida aniqlanishicha, realizmda kichik detallar katta badiiy ahamiyat kasb etadi. Ular voqeani yanada jonli tasvirlash bilan birga, davr ruhini, tarixiy sharoitni va jamiyatdagi ichki munosabatlarni yoritishda muhim vazifa bajaradi. Misol tariqasida,



Abdulla Qahhorning “Dahshat” asaridagi mayda, ammo o‘ylangan detallar o‘quvchini voqea muhitiga chuqur olib kiradi. Shuningdek, olib borilgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, realizm janri faqat voqealarni aks ettirish bilan chegaralanmay, balki o‘quvchida tanqidiy fikrlash, ijtimoiy hodisalarni baholash va o‘z shaxsiy xulosalarini shakllantirish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Badiiy asardagi realizm o‘z davrining guvohnomasiga aylangan bo‘lib, kelajak avlod uchun tarixiy va madaniy manba vazifasini bajaradi. Demak, realizm janrining badiiy asarlardagi o‘rni nafaqat estetik zavq berishda, balki voqelikni haqqoniy va chuqur yoritishda, o‘quvchini o‘sha davrga olib kirishda, ijtimoiy-siyosiy holatni tushunishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi tildan ustalik bilan foydalanib, metafora, metonimiya, kinoya kabi badiiy tasvir vositalarini mahorat bilan uyg‘unlashtiradi. Bu esa asarning ta’sirchanligini oshiradi, uni nafaqat o‘quvchining his-tuyg‘ulariga, balki tafakkuriga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadigan darajaga olib chiqadi. “Dahshat” hikoyasi misolida ko‘rish mumkinki, Abdulla Qahhor realistik adabiyotning eng yaxshi an‘analarini davom ettirib, uni milliy ruh va zamonaviy dolzarb masalalar bilan boyitgan. Shunday qilib, mazkur asar yozuvchining ijodiy salohiyati, ijtimoiy mas’uliyati va inson qalbini nozik his eta olish qobiliyatining yorqin ko‘rinishidir. Shu bois realizm adabiyotshunoslikda ham, madaniyatshunoslikda ham, ijtimoiy tahlilda ham doimo dolzarb bo‘lib qoladi.

XULOSA

Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi o‘zbek adabiyotida realizm yo‘nalishining yorqin namunasidir. Asarda muallif o‘sha davr hayotini, ijtimoiy muhitni va inson xarakterlarini tabiiy, hayotiy detallar orqali tasvirlaydi. Hikoyada tasvirlangan voqealar va qahramonlarning harakati o‘quvchiga sun’iy yoki uydirma tuyulmaydi, balki o‘sha davrning aniq manzarasi sifatida ko‘z oldida gavdalanadi. Qahhor voqealarni nafaqat syujet orqali, balki mayda detallar – kiyim-kechak, uy jihozlari, so‘zlashish uslubi, kundalik odatlar – orqali jonli ko‘rsatadi. Masalan, qizning paranji va chimmat kiygan holatini tasvirlash, choynak va qumg‘on kabi



o'sha davr maishiy buyumlarini keltirish, yoki odamlarning bir-biriga bo'lgan munosabatidagi ichki samimiyat va ayrim paytda qo'rquv ham realizm ruhini kuchaytiradi. Muallif hikoyada faqat tashqi muhitni emas, balki insonlarning ichki holatini ham nozik tahlil qiladi. Qahramonlarning qo'rquvi, hayratlanishi, ichki tortinchoqligi yoki jur'atsizligi o'quvchini o'sha holatga bevosita guvohdek qiladi. Hikoya davomida jamiyatdagi ayollar mavqei, kiyinish madaniyati, urf-odatlar va davr ruhiyati ham o'z aksini topadi. Bu jihatlar nafaqat badiiy qiymatga ega, balki tarixiy manba sifatida ham ahamiyatlidir, chunki ular o'quvchiga o'sha davrning madaniy va ijtimoiy ko'rinishini yetkazadi. Shunday qilib, "Dahshat" hikoyasi badiiy jihatdan ham, mazmun jihatidan ham teran asar bo'lib, unda muallifning o'tkir kuzatuvchanligi, tasvir mahorati va davr ruhini to'liq ifoda eta olish qobiliyati yaqqol namoyon bo'ladi. Asarda keltirilgan detallar, voqealar va xarakterlar o'zbek xalqining XX asr boshidagi hayotidan olingan real lavhalardir. Shu bois, hikoya nafaqat adabiy meros sifatida, balki o'z davrining hayotiy hujjati sifatida ham qadrlil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qahhor. *Dahshat*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. –b:56.
2. Azizov, S. *O'zbek adabiyotida hikoya janri*. Toshkent: Fan, 2005. –b:215.
3. Ergashov, M. *Adabiy tahlil asoslari*. Toshkent: O'zbekiston, 2012. –b:198.
4. Jo'rayev, O. *Abdulla Qahhor ijodi va badiiy mahorati*. Toshkent: Fan, 2000. –b:242.
5. Karimov, S. *O'zbek realizmi: nazariya va amaliyot*. Toshkent: Yozuvchi, 2010. – b:276.
6. Qodirov, H. *O'zbek hikoyachiligi tarixidan*. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015. –b:190.
7. Qahhor, A. *Tanlangan asarlar*. 2-jild. Toshkent: Yozuvchi, 1981. –b:345.



8. Quronov.D, Mamajonov.Z, Sheraliyeva.M, “Adabiyotshunoslik lug’ati”, Toshkent “Akademnashr”, 2010, -B:363.
9. Rustamova, N. *Badiiy tahlil metodlari*. Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – b:220.
10. To‘xtasinov, A. *XX asr o‘zbek nasrida realizm*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2007. –b:256.